



TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Shomirzayeva Gulchiroy Sultonmurod qizi

shomirzayevgulchiroy@gmail.com +998500113041

Аннотация. Педагогик texnologiyalar- bu o'quv jarayonini ilmiy asoslangan holda tashkil etish, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metod, vosita va shakllarning uyg'un tizimidir. Ular o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda yangicha yondoshuvni ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim jarayonini samarali, tizimli va innovatsion asosda tashkil etishga yordam beradi. Uning ilmiy-pedagogik asosi- ta'lim nazariyasi, psixologik qonuniyatlar va didaktik tamoyillarga tayangan holda, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining uyg'unlashuvini ta'minlashdir.

Аннотация. Педагогические технологии – это целостная система методов, средств и форм, обеспечивающая научно обоснованную организацию учебного процесса и направленная на повышение эффективности обучения. Они обеспечивают новый подход к формированию у учащихся знаний, умений и навыков.

Внедрение педагогических технологий способствует организации образовательного процесса на эффективной, системной и инновационной основе. Их научно-педагогическая база заключается в обеспечении гармонии деятельности преподавателя и учащегося, опираясь на теорию образования, психологические закономерности и дидактические принципы.

Annotation. Pedagogical technologies represent an integrated system of methods, tools, and forms that ensure a scientifically grounded organization of the learning process and contribute to enhancing the effectiveness of education. They provide a new approach to developing students' knowledge, skills, and competencies.



The implementation of pedagogical technologies helps to organize the educational process effectively, systematically, and innovatively. Their scientific-pedagogical foundation lies in ensuring the integration of teacher and student activities, based on educational theory, psychological laws, and didactic principles.

Kalit soʻzlar. *Pedagogik texnologiya, taʼlim, didaktik tamoyil, innovatsiya, interfaol metod, samaradorlik.*

Ключевые слова: *педагогическая технология, образование, дидактический принцип, инновация, интерактивный метод, эффективность.*

Keywords: *pedagogical technology, education, didactic principle, innovation, interactive method, effectiveness.*

Oʻqitish metodikasi oʻzgarmasa, taʼlim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham oʻzgarmaydi.

Shavkat Mirziyoyev

“Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va maʼnaviy sogʻlom oʻsishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega boʻlgan, uygʻun rivojlangan insonlar boʻlib, XXI asr talablariga toʻliq javob beradigan barkamol avlod boʻlib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻyamiz”.¹ Bu maqsadni amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilishning oʻrni beqiyosdir. Oʻtgan davr mobaynida ushbu yoʻnalishda qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, uzluksiz taʼlim tizimidagi umumiy oʻrta taʼlim, oʻrta-maxsus, kasb-hunar taʼlimi va oliy taʼlim turlari boʻyicha davlat taʼlim standartlari ishlab chiqildi. Hamda mazkur yoʻnalishlarga doir taʼlim-tarbiyani amalga oshirish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, uning maʼlum elementlarini joriy qilishga doir qator izlanishlarni oʻtkazish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, bugungi kunda metodist-olimlarimizdan N.Saidaxmedov, J.Gʻ.Yoʻldoshev, S.Umarov, I.I.Tursunov, X.Yu.Hakimjonov, Oʻ.Tolipov va boshqalarning yangi pedagogik

¹I.A. Karimov. Asosiy vazifamiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksalishdir. T.:2010



texnologiyalarni joriy qilishga doir izlanishlari o'z samarasini bermoqda. Ammo, bu yondashuv va usullar, yangi pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga to'liq tadbiiq etishga doir barcha muammolarni hal qildi degani emas. Chunki pedagogik texnologiyaning tabiati, bosqichlari, tamoyillari va tarkibiy elementlari haqidagi turli qarashlar: pedagogik texnologiyalarni joriy metodikadan farqi va oxir-oqibat uni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llashga doir pedagogik-psixologik asoslari tugal o'z ilmiy yechimini topmagan muammolar yetarli. Dunyoga mashhur YUNESKO tashkiloti maxsus anjumanlarida ham ta'lim taraqqiyoti ko'p jihatdan pedagogik texnologiya muammosining to'g'ri hal etilishi bilan bog'liq ekanligini qayta-qayta qayd etilishi, hali bu yo'nalishda ko'pgina izlanishlar qilinishidan dalolat beradi. So'nggi yillarda Bolgariya, Vengriya, Polo'sha, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda respublikamizda ham ta'lim-tizimiga pedagogik texnologiyani olib kirishga doir muammolar o'z yechimini topmoqda. Mashg'ulotlarni bir xil andoza va qabul qilingan an'ana asosida olib borishdan voz kechib tarbiyalanuvchi va o'qituvchining erkin va ijodkorona tarzda fikr-mulohaza yuritishi, usul va vositalarni qo'llash imkonlari amalda qo'llanilmoqda. Mazkur metodik qo'llanmaning asosiy yo'nalishi ham yuqorida keltirgan maqsad va vazifalarga, qaratilgan bo'lib, turli fanlardan ayrim mavzularni o'ziga xos yondashuvlar asosida o'tish yo'llari va vositalari keltirilganki, buni o'rganib chiqish ta'lim-tarbiya tizimida ishlovchi har bir mutaxassis uchun foydadan holi emas. E'tiboringizga havola qilinayotgan ushbu to'plam ma'lum ma'noda pedagogik texnologiya elementlarini amalda tadbiiq qilishga doir bo'lib, ta'lim-tarbiya tizimini yangi pedagogik texnologiya asosida takomillashtirishdan maorifchilarimizga yordam beradi degan umiddamiz.

Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. "Texnikaviy bilim murakkab texnologiyani qo'llash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir" – deydi I.A.Karimov.²

² I.A. Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: O'zbekiston", 1995y, 46-bet



“Texnologiya“ soʻzi texnikaviy taraqqiyot bilan bogʻliq holda fanga 1872 yilda kirib kelgan va yunoncha ikki soʻzdan - “texnos“ (techne) - sanʼat, hunar va “logos“ (logos) - fan soʻzlaridan tashkil topgan.

Oʻquv jarayonidagi pedagogik texnologiya- bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayon boʻlib, oʻquvchining extiyojidan va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bir maqsadga yoʻnaltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish oʻqituvchi va oʻquvchining hamkorlikdagi faoliyati, ular qoʻygan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl, vositaga, yangi texnologiyaga bogʻliq.

Texnologiya- ishlab chiqish jarayoni, pedagogik texnologiya esa – yaxlit pedagogik jarayondir. Pedagogik texnologiyaning asosiy belgilari: loyihalashtirish, amalga oshirish, kafolatli natija. Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati- kafolatli natijaga yoʻnaltirilganligi. Har bir texnologiya, shu jumladan, pedagogik texnologiya ham oʻzining mezonlariga bogʻliq: kanseotuallik, tizimlilik, samaradorlik, boshqaruvchanlik, qayta tiklanuvchanlik. Pedagogik texnologiyani oʻquv jarayonida umumpedagogik, xususiy metodik, modulli yoʻlislarda qoʻllash darajalari aniqlangan. Har qanday texnologiya biron-bir gʻoyani, ilmiy fikr yoki nazariyani amaliyotda xayotga tatbiq etib, uni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan. Shu bois pedagogik texnologiya fan va amaliyot oraligʻidagi oʻrinni egallaydi.

Shunday ekan, u yoki bu texnologiyani amaliyotga yoki oʻquv jarayoniga qoʻllashdan avval uning barcha xususiyatlari va imkoniyatlarini oʻrganib chiqib, keyin uni qoʻllash kerak.

Oʻqituvchi va oʻquvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan boʻlib, bunda ishlatiladigan texnologiya oʻquvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitiga qarab tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, film, taratma materiallar, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar kerak boʻlar. Bularning hammasi oʻqituvchi va oʻquvchiga bogʻliq.



Bugungi kunda pedagogik texnologiyani o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan usul va uslublar yig'indisidir deb topilsa-da, aslida bu tushuncha haqida turlicha ta'riflar mavjud.

1) Pedagogik texnologiya – bu ta'lim-tarbiya jarayonida joriy etish mumkin bo'lgan maqsadli texnikadir.

2) Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatli kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini rivojlantirish jarayonining loyihasidir.

3) O'qitish texnologiyasi – bu mashg'ulotning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi .

4) Pedagogik texnologiya – bu pedagogikadagi tizimli fikrlash usulidir.

5) Pedagogik texnologiya – bu tarbiyalanuvchilar harakatlarida aks etgan ta'lim natijalari orqali ishonchli, anglab olinadigan va aniqlanadigan va maqsadni ifodalashni taqozo etuvchi holatdir.

6) Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishni va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan begilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir .

7) Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

8) Texnologiya – bu san'at, mahorat, qobiliyat, ishlab chiqilgan metodlar majmui, holat, o'zgarishdir.

9) O'qitish texnologiyasi – bu didaktik tizimlar protsessi qismining tarkibidir.

10) Pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini rivojlantirish, uning tashkiliy shakllarini o'zgartiruvchi mazmun metodlarning yangi tizimidir .

11) Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini ilm olish maqsadiga yo'naltirilgan tizimli, konseptual, me'yorlashgan, ob'yektiv, invariantli tavsifdir.



12) Pedagogik texnologiya – bu psixologik yo‘l-yo‘riqlar (ko‘rsatmalar) majmui bo‘lib, o‘qitish primlari, tarbiya vositalarining maxsus shakl yig‘indisini aniqlaydi: ya’ni u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik instrumentariyasidir.

13) Pedagogik texnologiya – bu o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonining davomida insoniy va texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tizimli yondashuvni yaratish, qo‘llash va aniqlash orqali ta’limning eng maqsadga muvofiq shaklini yaratishdir.

14) Pedagogik texnologiya – bu o‘quv jarayonini o‘tkazish va tashkil qilishni loyihalashda o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun har jihatdan qulay shart sharoitlarni so‘zsiz ta’minlovchi barcha ustalari oldindan puxta o‘ylangan pedagogik faoliyatdir.

15) Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadni amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan barcha xususiy instrumental va metodologik vositalar, tartibli funksiyalar tizimining majmuidir.

Yuqoridagi keltirilgan ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, pedagogik texnologiya belgilab olingan boshlang‘ich maqsad va mazmun asosida o‘quv jarayonini loyihalash sifatida talqin etilayapti. Ta’riflarning xilma xilligi, tahlil qilinib bitta umumiy mahrajga keltirilsa quyidagi xulosalarni keltirib chiqarish mumkin bo‘ladi:

a) ko‘pgina yondashuv bir yoqlama bo‘lib, o‘quvchi shaxsi etirof etilishi pedagogik texnologiyada rad qilinadi.

b) pedagogik texnologiya tarixi ancha uzoq yillarga borib taqalgan holda, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzu u yoki bu darajada yechilayotgan va joriy qilingandir;

v) pedagogik texnologiya yo‘nalishdagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish lozim;

g) ta’lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish davr talabi bo‘lib, boshqa sohadagi texnologik tajribalar bilan uzluksiz boyib boradi va an’anaviy-o‘quv jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni: “ Tashkil etish, hamkorlikda ish yuritish, takomillashtirish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish nazorat etish, baholash kabilarni o‘z ichiga oladi”.



Texnologiyaning ob'yekti-ta'lim mazmunini texnologiyalashtirish jarayonidir.

Texnologiyaning predmeti- ta'lim jarayonining pirovard samarali natijasini olish shakli, usul va vositalarini belgilashdan iborat.

Texnologiyaning maqsad-ta'lim mazmunini modullashtirish, algoritmlash, loyihalashtirish asosida talabning shaxsiy faolligi ishtirokida Davlat ta'lim standartini to'la o'zlashtirishni kafolatlashdan iborat.

Har bir o'qituvchi pedagogik texnologiyani o'z mashg'ulotlariga qo'llash uchun quyidagi texnologik xaritadan foydalanish mumkin:

- Mavzuni aniqlash;
- Maqsadni aniqlash;
- Mavzu yuzasidan o'zlashtirish lozim bo'lgan kalit so'zlarni belgilash;
- Vazifalar 1,2,3... belgilab olish;
- Texnologik jarayonni tashkil etish:
 1. Yakka ishlash.
 2. Juft bo'lib ishlash.
 3. Kichik guruhlarda ishlash.
 4. Katta guruhlarda munozara, savol-javob va boshqalar.
 5. Reglament
 6. Baholash
 7. Xulosalar.

Tayyor xoldagi texnologiyalar avval tajriba – sinovidan o'tgan yuqori ko'rsatgich berganlari iste'molga kiritiladi. Bu esa pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish asosida pedagogik tizimni yangilash asosida kichadi.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llashda o'quvchilarning shaxsi va uning qadri ta'lim jarayoni markazida turishi kerak. Iloji boricha jarayonlar jarayonlar individuallshgan tabaqalashtirgan holda olib boriladi.



Bunda asosiy e'tibor o'quvchi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijodiy, matiqiy fikrlay olish ko'nikmasini shakllantirish, uning mustaqilligi, erkinligini ta'min etish, o'quvchining qiziqishi asosida ish yuritish, o'z – o'zini tarbiyalash, mustaqil bilim olish ko'nikma va malakasini oshirishni hosil qilishga qaratmog'i zarurdir.

Quyidagi biz pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga amalda qo'llashning asosiy xususiyatlarini ko'rib o'tamiz:

1. O'quvchi nafaqat o'qitiladi, uni mustaqil o'qishga o'rgatiladi.
2. O'quv reja, dasturlarda, darslik, qo'llanmalar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilinadi.
3. Ta'lim mazmunini, matnlarni mustaqil mutolaa qilish ko'nikma va malakalari shakllantiriladi.
4. O'quvchi o'z fikrini bildira olish o'rgatiladi.
5. Barcha o'quvchilarning o'z qobiliyat va imkoniyatlari darajalarida albatta o'zlashtirishlari kafolatlanadi.

Buning uchun har bir o'qituvchi o'z shaxsiy dasturi asosida o'z shaxsiy dasturi asosida ilg'or texnologiyalarni o'qib-o'rganib, o'zlashtirib olish zarur. Kutubxonalarda, electron darslik, qo'llanmalar, internet orqali o'z malakalarini o'zlari uzluksiz oshirib borishi talab etiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning rivojlanish sabablaridan biri shuki, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor, bir qolipdagi bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi va o'quvchilar bunday jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi talabalar asosiy figuraga aylanadi.



O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa, o'quvchidan ko'proq mustaqil ishlash, ijod qilishi va iroda kabi sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanishi shaxsiy tabiatdan kelib chiqqan holda, o'quvchini kim o'qiyotganligi va o'qituvchi kinmi o'tiyotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqatai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun, yangi axborotni o'zlashtiradigan va o'zlashtirilgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilim va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.


Innovatsiya (inlizcha innovation)- yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish demakdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimi, pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tadbiiq qilish jarayonida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar birinchi o'ringa chiqadi. Pedagogik texnologiya va pedagogning maxoratiga oid bilim, tajriba va intiraktiv metodlar o'quvchi talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha

ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar foliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiyalar



Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, magistrlar, mustaqil ilmiy-tadqiqodchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu nafaqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, balki o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan IT, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda, birga erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish, bilim berish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa,



har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, izlansalarni tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'uloti, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlari va texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqa holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan bo'ladi. Maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va o'quvchining belgilagan maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani, metodlarni tanlashlari ularning ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning tanlagan asosiy maqsadi aniq: natija va samaraga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, shart-sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'ladi, bular o'qituvchiga bog'liq, albatta. Shu bilan bir qatorda, o'qitish jarayonini, mashg'ulotni oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tamonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchini ta'limning markaziga olib chiqishi kerak. O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi zarur. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni ya'ni mashg'ulotni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga ega. Chunki dars, mashg'ulotlarning texnologik xaritasi xar bir mavzu, xar bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.



Xulosa .

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari- bu pedagogika va psixologiya nazariyalariga, didaktik tamoyillarga , shuningdek innovatsion yondoshuvlarga tayanadi. Ularning qo'llanishi ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantiradi hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quv jarayonining sifat va samaradorligiga erishish uchun uning kafolatini ta'min etishning yagona yo'li talim oluvchi o'quvchining shaxsan faolligiga, mas'uliyatiga bog'liqdir. Shu sababli barcha o'qituvchilar pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib, o'z faoliyatlarida amaliyotda qo'llay olsalar, ta'limning sifat va samaradorligiga erishish, raqobatdosh kadrlar tayyorlashni kafolatlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining barcha jabhalarida mehnat qilayotgan pedagog hodimlar uzluksiz innovatsion izlanishda bo'lishi, fikrlashi , psixologik munosabatlarini o'zgartirishi, shuningdek, boshqalarda ham innovatsion g'oyalarni shakllantirish borasida o'rnak bo'lishlari va faoliyat ko'rsatishlari zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov Q.M., Ismoilov O. A. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari. (metodik qo'llanma) “ Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012
2. “Ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash afzalliklari. Muammolar va ularning yechimlari” Respublika ilmiy-amaliy anjumanining materiallar to'plami. 2023-yil 17-may.
3. Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnal Toshkent 2011-yil 3-son
4. R. Ishmuhammedov, M. Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent 2017.
5. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari forumi materiallari to'plami. Toshkent 2016
6. Google internet sayiti